HAMKORLIK SHARTNOMASI №12

Toshkent sh. "20" avgust 2023 y.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Uchtepa tumani 28-Bolalar musiqa va san'at maktabi (keyingi o'rinlarda "Musiqa maktabi" deb yuritiluvchi) "Ustav" asosida maktab direktori M.R.Xodjayeva bir tomondan , O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi (keyingi o'rinlarda "Mehribonlik uyi" deb yuritiluvchi "Nizom" asosida ish yurituvchi direktori D.M.Djurayeva ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun 28-Bolalar musiqa va san'at maktabi 22-mehribonlik uyida o'quv reja bo'yicha dars soatlari o'tkazish .

1.2. Darslar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari va Musiqa va san'at maktabi Ustavi asosida tashkil etiladi.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Maktab:

-tashkil etilgan dars mashg'ulotlari tarbiyalanuvchilarni qiziqishiga xohishiga asoslangan holda bo'sh vaqtlarda o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kasb-hunar mehnat ko'nikmalarini egallashlariga yordam beradi;

- musiqa va san'at maktabi darslari o'quv reja asosida uzluksiz olib borilishini ta'minlaydi.
- darslarga qatnashuvchi tarbiyalanuvchilarni dars mashg'ulotlarini hisobga olish jurnali asosida ro'yhatga oladi;
- darslarni sifatli o'tkazilishi uchun mas'ul mutaxassis o'qituvchi tayinlaydi, uning faoliyatini nazorat qiladi va o'rnatilgan tartibda oylik maosh bilan ta'minlaydi.

2.2. Mehribonlik uyi:

- dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan xona bilan ta'minlaydi;
- dars jarayoniga qiziqqan tarbiyalanuvchilarni xohish-istaklari bo'yicha jamlaydi;
- darslar o'z vaqtida o'tkazilmagan taqdirda maktab ma'muriyatini zudlik bilan ogohlantiradi;
- tarbiyalanuvchilar xohish istaklariga ko'ra maktabga qo'shimcha yangi yo'nalishlar tashkil etish bo'yicha takliflar kiritadi.

3. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan har qanday noroziliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

4. BOSHQA SHARTLAR

4.1. Shartnoma tomonlar imzolagan vaqtdan kuchga kiradi va bir yil muddatga amal qiladi.

4.2. Agar tomonlar o'rtasida musiqa va san'at maktabi darslarini tugatish haqida shartnoma muddati tugatishga 15 kun qolgunga qadar ariza tushmasa shartnoma keyingi muddatga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

5. TOMONLARNING MANZILLARI

UCHTEPA TUMANI 28-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI
...hkent shahar Uchtepa tumani
... ko'chasi 79 a uy
...17-02-22

Direktor M.R.Xodjayeva

CHILONZOR TUMANI
22-MEHRIBONLIK UYI
Toshkent shahar Chilonzor tumani
Baynalminal ko'chasi 24 uy
Tel. 71 245-02-35

Direktor D.M.Djurayeva